PEDAGOGIKA

UDK: 378.14.014.13 DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss3/a2

FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BO‘LAJAK MUSIQA TA’LIMI O‘QITUVCHILARINING BADIIY-ESTETIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРИРОВАНИЯ ДИСЦИПЛИН

PEDAGIGICAL MODEL OF ARTISTIC-ESTHETIC COMPETENCE DEVELOPMENT OF FUTURE MUSIC TEACHERS ON THE BASES OF DISCIPLINE INTEGRATION

Shermuhammadov Bahodir Shermuhammadovich[1]
Murodova Durdonaxon Rayimjon qizi[2]

[1]Shermuhammadov Bahodir Shermuhammadovich – Farg‘ona davlat universiteti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor

[2]Murodova Durdonaxon Rayimjon qizi – Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi.

Annotatsiya

Mazkur maqolada yoshlarda kamolotning asosiy mezoni hisoblangan yuksak ma’naviy fazilatlarni mustahkamlash, ma’naviyatning shaxs, jamiyat va davlat hayotidagi zaruriyatini ijtimoiy-axloqiy mezonlar asosida o‘rganish, yoshlarga yuksak ma’naviyat konsepsiyasining zaruriyati, ma’naviy yuksaklik mamlakat barqarorligini ta’minlovchi omil ekanligini tushuntirish, yuksak ma’naviyatning hayotiy zaruriyati hamda jamiyat taraqqiyotining asosiy mezoni ekanligi ilmiy asoslangan. Shuningdek, maqolada musiqa ta’limi mutaxassislari tayyorlashda kasbiy mahoratga erishish bilan birga, umuminsoniy fazilatlar sohibi bo‘lishda barkamol mutaxassislarni tayyorlash uchun musiqa ta’limi fanlari imkoniyatlaridan keng foydalanish lozimgi ta’kidlanadi.

Аннотация

В данной статье укрепление высоких нравственных качеств, которые считаются главным критерием зрелости у молодежи, изучение необходимости духовности в жизни личности, общества и государства на основе социально-нравственных критериев, потребности для высокого понятия о духовности у молодежи, духовное величие являются факторами, обеспечивающими стабильность страны. Жизненная необходимость высокой духовности и главные критерии развития общества считаются научно обоснованными. Также в статье подчеркивается, что, помимо достижения профессиональных навыков в подготовке специалистов музыкального образования, необходимо широко использовать возможности дисциплин музыкального образования для подготовки компетентных специалистов, владеющих универсальными качества.

Abstract

In this article, the strengthening of high moral qualities, which are considered the main criterion of maturity in young people, the study of the necessity of spirituality in the life of an individual, society and the state based on social and moral criteria, the need for a high concept of spirituality for young people, spiritual highness are factors which ensure the stability of the country explaining that it is a vital necessity of high spirituality and the main criterion for the development of society, which is scientifically grounded. Also, in the article, it is emphasized that, in addition to achieving professional skills in the training of music education specialists, it is necessary to make wide use of the possibilities of music education disciplines in order to train competent specialists in the possession of universal qualities.

Kalit so‘zlar: *musiqa, badiiy-estetik, kompetentsiya, metod.*
Ключевые слова: *музыка, художественно-эстетическая компетентность, метод.*
Key words: *music, artistic-aesthetic, competence, method.*

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizning barqaror rivojlanishini ta’minlash bilan bog‘liq zamonaviy qarashlarga asoslangan yangi jamiyatni barpo etish g‘oyasi xalqimizning barcha qatlamlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgani va el yurtimizning bu g‘oya atrofida birlashayotgani muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu jarayonda “Biz yangi O‘zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda zayolilarga katta ishonch bilan qaraymiz. Shuning uchun ilmiy va ijodiy izlanishlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularga zarur sharoitlar yaratishni o‘zimizning birlamchi vazifamiz sifatida ko‘rish darkor. Shu maqsadda hukumatimiz tomonidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amalga oshirib kelinmoqda”[1;42]. Mana shu chora-tadbirlar negizida ta’limiy islohotlar ham jadallik bilan olib borilmoqda. Shu bois mamlakatimizda oliy ta’lim tizimi o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ydi va faol tarzda islohotlarni amalga oshirish, mutaxassislarni tayyorlashning mahsuldor

tamoyillari va modellarini izlash bilan tavsiflanadi. Mazkur jarayon pedagogik ta'limda muayyan g'oyalar bilan e'tirof etilgan bo'lib, ular zamonaviy jamiyat rivojlanishining umumiy qonuniyatlari bilan bog'liq bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Fanlararo integratsiya fanlarning xususiy imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Masalan, musiqa fanlarini faqat muayyan bir fan asosidagina o'rganish, faqat bu turkumdagi fanlar imkoniyatidan foydalanib bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish mumkin deb qarash bir tomonlama va noto'g'ri tasavvurdir. Aksincha, bu turkumdagi fanlar barcha fanlar, xususan, ijtimoiy, aniq va tabiiy fanlar bilan uzviy, chambarchas bog'liq. Mashhur pedagog V.A.Suxomlinskiy turli sohalar va tarbiya shakllari o'rtasidagi uzviy o'zaro aloqa hamda o'zaro bog'liqlikni ta'kidlab, mazkur jarayondagi eng muhim narsa pedagogik ta'sirlarni uyg'unlashtirish muammosi deb hisoblaydi [2; 129]. Tarbiyaning eng muhim qonuniyatlaridan birini ifoda etuvchi bu muammoning mohiyati, – degan edi u, – quyidagilardir: shaxsga ta'sir etuvchi har bir vositaning pedagogik samarasi boshqa ta'sir vositalarining qanchalik o'ylanganligi, maqsadga yo'nalganligi, samaraliligiga bog'liqdir. Shaxsga ko'rsatiladigan istalgan ta'sir, agar yuzlab boshqa ta'sirlar bo'lmasa, o'z kuchini yo'qotadi.

Musiqa ta'limidagi fanlar mazmunidagi mavzularni integratsiyalash orqali bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganish maqsadida "San'atshunoslik" bakalavriat ta'lim yo'nalishi tadqiqot obyekti sifatida belgilab olindi. Jumladan, mazkur ta'lim yo'nalishi o'quv rejasining "Tabiiy-ilmiy va gumanitar fanlar" blokidagi "Falsafa", "Umumkasbiy fanlar" blokidagi "Umumiy pedagogika", "Tanlov fanlar" blokidagi "Tarbiya fanini o'qitish texnologiyasi" fanlarining integratsiyasini ta'minlash asosida talabalarda bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirishga oid tajribaviy ta'lim amalga oshirildi.

Pedagog olim M.T.Davletshin pedagog professiogrammasi haqidagi qarashlarida bo'lajak o'qituvchida o'ziga xos quyidagi sifatlarning mavjudligi zaruriyat ekanligini ko'rsatadi:

- shaxsiy xislatlar: bolalarni yaxshi ko'rish, mehnatsevarlik, jamoat ishlarida faollik va boshq.
- kasbga xos bilimlarga egalik: ta'lim-tarbiya jarayonining mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunish va boshq.
- o'z kasbiga xos xislatlar: hozirgi zamon pedagogikasining metodologik bilimlarni egallashi va boshq.
- shaxsiy pedagogik uddaburonlik: mashg'ulotlar uchun zarur materiallarni tanlay olish, maqsadlarni rejalashtira olish va boshqalar". Mazkur pedagogik professiogramma ko'proq pedagogik ta'lim muassasalarining turli mutaxassisliklariga to'g'ri keladi va bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida ham badiiy-estetik kompetntlikni rivojalntirishda mazkur sifatlar juda muhim ekanligi kelib chiqadi.

OLINGAN NATIJALAR

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish jarayonini modellashtirishda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari, fan-texnika yutuqlari, yaratilayotgan yangiliklar va rivojlanishlar, yoshlarning intellektual salohiyatining o'sib borishi, rivojlanib borayotgan davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlari, rivojlanishlarga bog'liq holda kun sayin o'zgarib, yangilanib va rivojlanib borayotgan zamonaviy talablarga asoslanish lozim.

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshirish lozim degan xulosaga kelindi: professionalizm va kompetentlik, yaxlitlik va tizimlilik, faoliyatga yo'naltirilganlik.

Ijtimoiy ta'limning ko'p funksiyali maydoni quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- izchillik - obyektning yaxlitligini va uni ta'minlovchi mexanizmlarni ochib berishga, murakkab obyektning xilma-xil munosabatlarini aniqlashga va ularni yagona namunaga keltirishga qaratilgan;
- yaxlitlik - obyektning ichki birligini, uning nisbiy avtonomligini, atrof-muhitdan mustaqilligini aks ettiradi;
- subyektivlik - talabani maqsadlarni belgilash va rostlash, motivlardan xabardor bo'lish, harakatlarni mustaqil amalga oshirish va rejaga muvofiqligini baholash, hayot rejalarini tuzish qobiliyati nuqtai nazaridan ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi;
- integrallash - tartibsiz hodisalar, qismlar, elementlarning bir butun (tartibli va strukturali) integrallanishini ta'minlaydi.

Shuningdek, fanlararo hamkorlik metodikasi bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarida ijodkorlik mahsulini yaratishga yo‘naltiruvchi quyidagi ko‘nikmalarni shakllantiradi:

- emotsional-obrazli sifatlar: ilhomlanish, ijodiy holatlarda emotsional ko‘tarinkilik, obrazlilik, tasavvur, fantaziya, xayolparastlik, romantiklik, yangilikni sezish, ijodiy taxmin;
- tashabbuskorlik, ixtirochilik, o‘ylab topishga tayyorlik, o‘ziga xoslik, nostandartlik;
- g‘oyalarni generatsiya qilish qobiliyati;
- fikrlarni turfa xilligini egallash, oilada, OTMda, ijtimoiy muhitda axloq normalari bilan mos kelishi;
- o‘rganilayotgan obyekt bilan suhbat olib borish malakasi, o‘rganish metodlarini tanlash, tuzilishi va tarkibini aniqlay olish malakasi, yondash obyektlar o‘rtasida bog‘liqlikni aniqlay olish.

MUHOKAMA

Bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik tizimni modellashtirishda quyidagi funksiyalarning bajarilishi ko‘zda tutildi:

- metodologik ta’minot funksiyasi. Mazkur funksiyani amalga oshirish me’yoriy-huquqiy hujjatlar va bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining badiiy-estetik bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini belgilab beruvchi ijtimoiy buyurtma bilan bog‘liq;
- me’yoriy-huquqiy ta’minot funksiyasi. Mazkur funksiya bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining badiiy-estetik bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga doir faoliyatga jalb etish tamoyillari, mazmuni, vazifalari, pedagogik shart-sharoitlari, diagnostik vositalarini aniqlashni taqozo etadi;
- metodik ta’minot funksiyasi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining badiiy-estetik bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishning metodik (mazmuni, shakl, metod va vositalari) shart-sharoitlarini aniqlashtirishni talab etadi;
- amaliy-tatbiqiy (empirik) funksiya. Mazkur funksiya qator vazifalarni hal etishga imkon beradi: bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining badiiy-estetik bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan bog‘liqlikda qadriyatga yo‘naltirilgan ustanovka va barqaror motivlarni shakllantirish, tadqiq etilayotgan jarayonni tahlil etish va muayyan tuzatishlar kiritish; natijalarni baholash va tahlil etish va h.k.

Maqsadga yo‘naltirilgan blok bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarida badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirish tizimining boshqa bloklari uchun yetakchi rol o‘ynaydi. Mazkur blok mazmunini aniqlashtirish asosida tadqiqot sohasiga doir ta’lim standarti va ijtimoiy buyurtma, me’yoriy-huquqiy asoslar belgilab olindi. Shuningdek, modelning maqsad va vazifalari ham aniqlashtirildi.

Bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarida badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirish ijtimoiy buyurtma sifatida O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, oliy ta’lim Davlat ta’lim standarti, shuningdek, axloqiy madaniyatni rivojlantirishning me’yoriy-huquqiy hujjatlari orqali belgilab olindi.

Bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarida badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan modelni ishlab chiqish jarayonida quyidagi vazifalarni hal etish ko‘zda tutildi:

1) bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarida badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirish modelini ishlab chiqishga doir metodologik yondashuvlarni aniqlashtirish;
2) modelning blok-tuzilmasini aniqlashtirish;
3) model blok va elementlari o‘rtasidagi aloqadorlikni ochib berish;
4) modelning blok-tuzilmasi va elementlariga tavsif berish.

Bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarida badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirishning yuqorida ko‘rsatilgan maqsad va vazifalari kompleks metodologik yondashuvlar bilan bog‘liq. Metodologik yondashuvni o‘rganish obyekti, tadqiqotning umumiy strategiyasiga rahbarlikni amalga oshirish tamoyili nuqtai nazaridan tadqiqotning qat’iy metodologik yo‘nalganligi sifatida talqin qilinadi.

Bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarida badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirishning samarali yondashuvlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tizimli-jarayonli yondashuv tadqiqotning umumiy asosi sifatida ilmiy izlanish mantig‘ini aks ettiruvchi muammoni qo‘yish, asosiy va lokal maqsadlarni aniqlashtirish, qarama-qarshi fikrlar va nuqtai nazarlarni aynanlashtiruvchi qoidalar bilan tavsiflanadi hamda bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarida badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirish modelini ishlab chiqishni ta’minlaydi;
- aksiologik va refleksiv yondashuvlar strategiyaning nazariy-metodologik asosi sifatida nazariy tadqiqot yo‘nalishlarini aniqlab beradi, uning umumiy ko‘rinishini aks ettiradi. Mazkur yondashuvlar qadriyatlar tizimini aniqlash hamda bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarida badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirish tizimida qayta aloqani ta’minlashga imkon beradi;

- shaxsiy-faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv qo‘yilgan maqsadga erishish uchun professor-o‘qituvchi va talabalar faoliyatini tashkil etish mexanizmi va tartib-qoidalarini aniqlash, o‘rganilayotgan hodisadan amaliy foydalanishning o‘ziga xosliklarini ochib berishga yo‘naltirilgan amaliy-yo‘naltirilgan taktika sifatida namoyon bo‘ladi.

Modelning navbatdagi bloki natijaviylikni o‘zida aks ettiradi. Mazkur blok baholovchi funksiyani bajaradi va tadqiqotning amaliy jihatini o‘zida aks ettiradi. Shuning uchun u o‘zida bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarida badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirish darajalari, mezonlari va ko‘rsatkichlarini aks ettiradi.

Tadqiqotda baholashning to‘rt mezoni ko‘zda tutildi: 1) kognitiv; 2) faoliyatga doir; 3) shaxsiy; 4) aksiologik.

Mazkur baholash mezonlarini aniqlashda quyidagi talablarga rioya qilindi: mezonlar soni uchtadan kam bo‘lmasligi, har bir mezon minimum uchta ko‘rsatkichga ega bo‘lishi;

1) mezonlar ularning kam yoki ko‘p namoyon bo‘lish darajasi haqida xulosa qilish mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlar asosida o‘lchanadi;

2) mezonlar imkoni boricha pedagogik faoliyatning asosiy turlarini hisobga olish asosida qabul qilinishi kerak.

Muammo yuzasidan zamonaviy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, asosiy o‘lchov mezonlari shaxsning rivojlantirishning ko‘proq yuqori darajasini egallaganligini aks ettiradi. Tadqiqotda quyidagi uch o‘lchov mezoni aniqlashtirildi: 1) kognitiv; 2) faoliyatga doir; 3) aksiologik.

XULOSA

Xulosa qilganda, bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarida badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirish samaradorligi ma’lum bir sifat o‘zgarishlarining mavjudligi orqali aniqlanadi.

1. Bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarida badiiy-estetik kompetentlikni rivojlanganlik darajasini tashxis etishning taklif etilgan dasturi asoslovchi bosqichda sinovdan o‘tkazildi va rivojlanganlik darajasini aniqlashga imkon beruvchi ta’limiy tajriba-sinov jarayonida foydalanildi.

2. Badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirish bo‘lajak o‘qituvchilarning badiiy-estetik didi va fahmini sintezlovchi, sifat va miqdor xususiyatini: alohida talabaning jamiyatdagi yuksak axloqiy-estetik qadriyatlarni o‘zlashtirish me’yorini; talabaning axloqiy-estetik ongi barcha elementlari, ehtiyojlari, qobiliyatlari va ideallarining rivojlanganlik darajasini; ularning hayotning barcha sohalarida amalga oshirilish me’yorini ifodalashi ma’lum bo‘ladi.

3. Bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish jarayonini modellashtirishda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari, fan-texnika yutuqlari, yaratilayotgan yangiliklar va rivojlanishlar, yoshlarning intellektual salohiyatining o‘sib borishi, rivojlanib borayotgan davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlari, rivojlanishlarga bog‘liq holda kun sayin o‘zgarib, yangilanib va rivojlanib borayotgan zamonaviy talablarga asoslanishi kelib chiqadi.

4. Musiqa ta’limi va tarbiyasida tizimlilik, ilmiylik va davomiylik prinsipi har bir mashg‘ulotlarda o‘zining tuzilishi va mazmuni bilan ilmiy asosda tashkil topishi lozim. Musiqa haqidagi bilimlar doirasi, musiqa ta’limi va tarbiyasining asosiy omilidir. Unda insoniyat yaratgan musiqaga oid qoidalar, xulosalar, umumlashgan musiqiy tajribalar o‘z aksini topgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi akademik litseylarda matematika o‘qitish misolida) / Ped.fan.dok... diss. – T.: TDPU, 2006. -B.264.
3. Gazman O.S. Pedagogika svobodi: put v gumanisticheskuyu sivilizatsiyu XXI veka // Novie sennosti obrazovaniya: – Moskva, 1996. Vip. 6.
4. Ivanov G.A. Integrativnie osnovi organizatsii nauchno-issledovatelskoy deyatelnosti uchashixsya/G.A. Ivanov// J. Pedagogicheskiye texnologii. – 2006. – №1. – S.22-29.
5. Mirtursunov Z. O‘zbek xalq pedagogikasi. – Toshkent: Fan, 1973. – B.212.
6. Shermukhammadov, B. (2022). Creativity of a Teacher in an Innovative Educational Environment. *Journal of Higher Education Theory & Practice*, *22*(12).
7. Шермухаммадов, Б. (2012). Использование различных методов, форм и средств в воспитании молодежи // *Актуальные проблемы современной науки*, (5), 80-83.